

## Bular nimadan yasalgan?



Biz nafaqat tabiat jismlari bilan o'ralganmiz, balki atrofimizdagi juda ko'p narsalarni – maktab jihozlari, kiyim-kechak, o'yinchoqlar, mebel, idish-tovoq, transport, uylarni insonning o'zi yasagan.



Bu kosalar qanday ashyodan yasalgan?



Yordam uchun so'zlar: yog'och, loy, plastmassa, shisha.



Inson qo'li bilan yaratilgan buyumlar turli xil materiallardan tayyorlanadi. Qadim zamonlardan beri odamlar **metall**, **loy**, **yog'och**, **jun** kabi materiallarni bilishgan. Yangi materiallardan **shisha** va **plastmassa** bor.

Bir xil buyumlar turli materiallardan yaratilishi mumkin. Misol uchun, qadimda qoshiqlar yog'ochdan yasalgan. Hozir bu qoshiqlar uyda ishlatilmaydi. Biz foydalanadigan zamonaviy qoshiqlar odatda metall dan tayyorlanadi. Bir martalik qoshiqlar plastikdan tayyorlanadi.





Tabiatda ko'plab tayyor materiallar mavjud: **loy**, **yog'och**. Boshqa materiallarni olish uchun bir nechta moddalar aralashtiriladi yoki aksincha, turli usullar yordamida bir materialdan bir nechta moddalar olinadi.



### Men – metallman.

Meni yerdan qazib olishadi, keyin zavodga olib ketishadi. Zavodda ishchilar meni shunchalik qizdiradilarki, men suyilib va qizarib ketaman. Ular meni qoliplarga quyadilar. Soviganimda, kuchli va qattiq bo'laman.



### Men – loyman.

Odamlar meni qadim zamonlardan beri biladilar. Men chuqur yer ostidaman. G'ishtlar, idish-tovoqlar, san'at asarlari mendan yasaladi. Keyin turli naqshlar bilan bo'yashgan. Avvaliga yumshoq va egiluvchan edim, lekin agar siz meni o'choqqa yoqib yuborsangiz, men kuchli va qattiq bo'laman.



### Men – yungman.

Men hayvonlarning terisida o'sib, ularni sovuqdan himoya qilaman. Odamlar ham isinish uchun meni hayvonning terisidan olishadi. Ayniqsa quyon, qo'y, echki, tuyaning yungini yaxshi ko'rishadi. Chunki men yumshoqman, issiqni yaxshi saqlayman. Shuning uchun mendan qo'lqop, qalpoq, po'stin, chapon va boshqa har xil kiyimlar to'qishadi.





Belgilariga qarab, gap qaysi ashyo haqida ketayotganini toping-chi (loy, yog'och, metall, yung).

1. Yumshoq, ho'l, shakli oson o'zgaradi.
2. Qattiq, mustahkam, sovuq.
3. G'adir-budur, naqshli, oson yonadi.
4. Yumshoq, yengil, issiq saqlaydi.



Bu yerda nima ortiqcha? Nima uchun?





Shu yerda nimaning nimadan olinishi noto'g'ri ko'rsatilgan?

- Qo'lqop – jun.
- Yog'och – kitob.
- Sviter – metall.
- Loy – likopcha.
- Qaychi – yog'och.
- Metall – avtomobil.
- Palto – loy.
- G'isht – jun.



Ba'zi materiallar ko'pincha qayta ishlatiladi. Metall va plastmassa eritiladi, latta va qog'ozdan karton tayyorlanadi. Shuning uchun axlat oldin saralanadi. Chiqindilarni maxsus qutilarga tashlashga yordam bering.



**Shisha**

**Metall**

**Qog'oz**

**Plastik**



Xonangizdagi metall, qog'oz, plastmassa yoki yog'ochdan yasalgan narsalarni yozing.